



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 9 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 8, НОМЕР 9

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 8, ISSUE 9



ТОШКЕНТ-2025

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабалджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Otabek Alimardonov</b> “MIGRATION AS A TOOL OF PUBLIC DIPLOMACY IN CENTRAL ASIA: CHALLENGES, STRATEGIES, AND PROSPECTS”.....	5
<b>2. Nilufar Djurayeva</b> SOVET DAVRIDA XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARI: MAQSAD VA VAZIFALAR, NATIJA VA MUAMMOLAR.....	14
<b>3. Нодира Джанибекова</b> ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ОЛИЙ МАЖЛИСА ВТОРОГО СОЗЫВА.....	25
<b>4. Боходир Эшов, Нурали Ҳазратов, Шавкат Каромов</b> УСТРУШОНАДАГИ ИЛК ДАВЛАТ УЮШМАСИ ТАРИХИНИНГ ТАХЛИЛЛАРИ.....	30
<b>5. Бехзод Исабеков</b> ҚОВУНЧИ МАДАНИЯТИНИНГ КАТАКОМБА ҚАБРЛАРИ: ОҲАНГАРОН, КАНДИРСОЙ МИСОЛИДА.....	38
<b>6. Ibragim Ibragimov</b> QUYI AMUDARYO HUDUDIDA HUNARMANDCHILIK TARIXI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR.....	44
<b>7. Shuhrat Norov</b> ZARAFSHON VOHASI VILOYATLARIDA YOSHLAR TASHKILOTLARINING IJTIMOIIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI ROLI.....	48
<b>8. Muxlisa Ro‘ziyeva</b> O‘ZBEKISTONDA 1991–2025- YILLARDA BOLALAR SPORT SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI.....	53
<b>9. Xo‘sinboy Sapayev</b> KO‘CHMANCHI SAK QABILALARINING DINIY E‘TIQODLARI, URF-ODAT VA AN‘ANALARI.....	58
<b>10. Mansur Fayzullayev</b> XX ASRNING 60-80-YILLARIDA O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGINING IXTISOSLASHTIRILISHI (SURXONDARYO, QASHQADARYO VILOYATLARI MISOLIDA).....	63
<b>11. Турғунжон Ярмагов</b> ЭТНОГРАФИК ЖИХАТДАН ФОЛЬКЛОП МАНБАЛАРНИ ЎРГАНИШНИНГ ТАДҚИҚОТ МЕТОДЛАРИ.....	68
<b>12. Gulom Djumamuratov</b> O‘ZBEK ULUSIDAGI OROL O‘ZBEKLARI ETNIK TARKIBIGA DOIR MANBALAR TAHLILI.....	73




UDK: 94(3)(575.175)(043)

**Xo'sinboy Sharibboyevich Sapayev,**  
Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy  
fanlar fakulteti stajyor-o'qituvchi  
xusanboysapayev1998@mail.com

## KO'CHMANCHI SAK QABILALARINING DINIY E'TIQODLARI, URF-ODAT VA AN'ANALARI

**For citation:** Kho'sinboy Sh.Sapayev. RELIGIOUS BELIEFS, CUSTOMS AND TRADITIONS OF NOMADIC SAK TRIBES. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 9.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17548806>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston hududida qadimiy davrlarda yashagan sak ko'chmanchi qabilalarining diniy e'tiqodlari, mifologik qarashlari hamda urf-odat va an'analari tarixiy-etnografik, arxeologik manbalar asosida ko'rib chiqiladi. Unda ushbu xalqlarning tabiat va osmon jismlariga sig'inishlari, ajdodlar ruhiga e'tiqod, hayot-mamot, ruh, jannat-do'zax tasavvurlari kabi diniy-falsafiy tushunchalar bilan birga, diniy marosimlar, dafn etish urf-odatlari, bayramlar, qurbonliklar va boshqa ma'naviy qadriyatlar o'rganiladi. Tadqiqotda arxeologik topilmalar, qadimgi yozma manbalar hamda xalq og'zaki ijodi asosida saklarning ruhiy dunyosi va ijtimoiy hayotidagi diniy an'analar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** sak qabilalari, qadimgi yozma manbalar, ko'chmanchi madaniyat, diniy e'tiqod, urf-odat, an'ana, totemizm.

УДК: 94(3)(575.175)(043)

**Хосинбой Шариббоевич Сапаев,**  
Стажёр-преподаватель факультета социально-экономических  
наук Ургенчского государственного университета  
xusanboysapayev1998@mail.com

## РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЕРОВАНИЯ, ОБЫЧАИ И ТРАДИЦИИ КОЧЕВЫХ САКСКИХ ПЛЕМЕН

### АННОТАЦИЯ

В статье на основе исторических, этнографических и археологических источников исследуются религиозные представления, мифологические взгляды, обычаи и традиции сакских кочевых племён, населявших территорию современного Узбекистана в древности. Особое внимание уделяется их поклонению природе и небесным светилам, вере в духов предков, а также религиозно-философским воззрениям, связанным с жизнью и смертью, душой, раем и адом. Кроме того, рассматриваются религиозные обряды, погребальные традиции, праздники, жертвоприношения и другие духовные ценности. Исследование анализирует духовный мир и религиозные традиции саков в контексте их общественной

жизни на основе археологических находок, древних письменных источников и устного народного творчества.

**Ключевые слова:** сакские племена, древние письменные источники, кочевая культура, религиозные верования, обычаи, традиции, тотемизм.

**UDC: 94(3)(575.175)(043)**

**Kho`sinboy Sh. Sapayev,**  
Trainee-Teacher, Faculty of Social and Economic Sciences,  
Urgench State University  
xusanboysapayev1998@mail.com

## RELIGIOUS BELIEFS, CUSTOMS AND TRADITIONS OF NOMADIC SAK TRIBES

### ABSTRACT

This article explores the religious beliefs, mythological concepts, customs, and traditions of the Saka nomadic tribes that inhabited the territory of present-day Uzbekistan in ancient times, based on historical, ethnographic, and archaeological sources. It discusses their worship of nature and celestial bodies, veneration of ancestral spirits, and their religious-philosophical ideas concerning life and death, the soul, heaven and hell. The article also examines their religious rituals, burial practices, festivals, sacrificial ceremonies, and other spiritual values. By analyzing archaeological discoveries, ancient written records, and oral folklore, the study provides a comprehensive understanding of the spiritual world and religious traditions of the Saka within their social context.

**Index Terms:** Saka tribes, ancient sources, nomadic culture, religious beliefs, customs, traditions, totemism.

### Kirish

Ko`chmanchi sak qabilalari O`rta Osiyo va unga tutash hududlarda miloddan avvalgi I ming yillikda yashab, o`ziga xos turmush tarzi, diniy e`tiqodlari va madaniy an`analari bilan ajralib turgan qadimiy etnoslardan biridir. Ularning hayoti tabiat bilan uzviy bog`liq bo`lib, diniy qarashlari ham asosan tabiat hodisalari, osmon jismlari, olov, suv, yer va hayvonlar kultiga asoslangan. Saklarning e`tiqod tizimi ularning ijtimoiy tuzilmasi, iqtisodiy faoliyati hamda estetik qarashlarini belgilab bergan muhim omil hisoblanadi.

Ko`chmanchi saklar jamiyatida din nafaqat ruhiy dunyoni, balki ijtimoiy tartibni ham shakllantiruvchi kuch bo`lgan. Ularning diniy marosimlari va urf-odatlari ko`pincha jamoaviy xarakterga ega bo`lib, qabila a`zolarini birlashtirgan. Saklar orasida ota-bobolarga sig`inish, ajdodlar ruhi bilan muloqot qilish, hayvonlar va tabiat kuchlarini muqaddaslashtirish keng tarqalgan edi. Ayniqsa, ot, yo`lbars, burgut kabi hayvonlar ularning ramziy timsoliga aylangan. Bu hayvonlar kuch, jasorat va erkinlik belgisi sifatida e`zozlangan.

### Adabiyotlar tahlili:

O`rta Osiyo hududida yashagan ko`chmanchi chorvador sak qabilalari haqida dastlabki yozma manbalar miloddan avvalgi davrga oid qadimgi bitiklarda uchraydi. Jumladan, saklar haqidagi ilk rasmiy ma`lumotlar qadimgi fors manbalarida [1], xususan, Behistun bitiklari, Persepol va Naqshi Rostam qoyatosh yozuvlarida, shuningdek, Doro I haykalida (mil. avv. VI–V asrlar) uchraydi [2]. Yuqoridagi manbalarda saklar Erondagi Ahamoniylar davlati bilan olib borilgan harbiy to`qnashuvlarda ishtirok etgan jangovar va mustaqil qabila sifatida tasvirlangan. Bundan tashqari, saklarga oid muhim yozma manbalar qadimgi yunon-rim tarixchilari tomonidan qoldirilgan [3]. Gerodot o`zining “Tarix” asarida saklar (massagetlar) haqida keng ma`lumot beradi [4]. Ular haqida u jasur, jangovar va erkin qabilalar sifatida yozadi, ularning urf-odatlari, hayot tarzi va harbiy strategiyalarini tavsiflaydi. Strabon, Polien, Pompey Trog, Pliniy Katta kabi tarixchilar esa saklarning geografik joylashuvi, siyosiy tuzilishi, madaniyati va boshqa qabilalar bilan aloqalari haqida ma`lumotlar bergan [3].

Saklarning e'tiqodlari va diniy qarashlarining ayrim jihatlari S.P. Tolstov, M.A. Itina, O.A. Vishnevskaya va L.T. Yablonskiylarning ishlarida ko'rib chiqilgan [5], ammo bu masala maxsus tadqiqot mavzusiga aylanmagan. So'nggi yillar monografiyalarida mazkur muammo qisqacha yoritilib, ko'proq Xorazm va zardushtiylik masalasi tahlil qilingan [6].

Saklarning e'tiqodlari qatorida Yevroosiyo dasht qabilalari diniy qarashlarining asotirli yoki magiya-sehrgarlik mohiyati, ko'chmanchilarning tasviriy san'atiga doir hayvon suratlarni ishlash "skif – sibir" usuli misolida B.N. Grakov, M.I. Artamonov, G.A. Fyodorov-Davidov, A.K. Akishev, Ye.E. Kuzmina va boshqa olimlarning asarlarida ko'rib chiqilgan [7].

### **Muhokama va natijalar:**

Arxeologik topilmalar saklarning diniy qarashlari haqida muhim dalillar beradi. Masalan, Qozog'iston va Janubiy Sibir hududlaridan topilgan Pazırık va Issiq qo'rg'onlaridagi buyumlar, oltin haykalchalar, quyosh timsollari, hayvon shaklidagi bezaklar saklarning totemistik va animistik e'tiqodlarga ega bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, dafn marosimlari orqali ular o'limdan keyingi hayotga ishonishganini bilish mumkin. Marhumlar bilan birga qurol, zeb-ziynat buyumlari va hatto otlarini ko'mish odati mavjud bo'lgan.

Saklarning diniy e'tiqodlari keyinchalik Zardushtiylikning shakllanishiga ham muayyan ta'sir ko'rsatgan. Quyosh va olovga sig'inish, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash g'oyalari aynan shu davr e'tiqodlarida ildiz otgan. Sak qabilalari o'z urf-odatlarini orqali nafaqat diniy qarashlarini, balki ijtimoiy qadriyatlarini ham ifoda etganlar. Ularning marosimlari orasida bahor faslining kirib kelishini nishonlash, urug'-aymoq yig'inlari, nikoh va dafn marosimlari muhim o'rin egallagan.

Bugungi kunda saklarning diniy e'tiqodlari, urf-odat va an'analari O'rta Osiyo xalqlarining madaniy merosida o'z aksini topgan. Ularning qadriyatlari inson va tabiat uyg'unligi, ajdodlarga hurmat, hamjihatlik va vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etadi. Shu sababli saklar tarixini o'rganish nafaqat arxeologiya yoki etnologiya uchun, balki zamonaviy madaniyatshunoslik va dinshunoslik nuqtai nazaridan ham dolzarbdir.

Ko'chmanchi sak qabilalari Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Sharqiy Turkiston, G'arbiy Sibir va Eron hududlarida yashagan qadimiy turkiy-eroniy xalqlar tarkibiga kiradi. Ularning diniy e'tiqodlari, urf-odatlarini va marosimlari tabiiy muhit bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Saklarning dunyoqarashi asosan tabiat kuchlariga, osmon jismlariga, hayvonlarga va ota-bobolar ruhiga sig'inish kabi qadimiy e'tiqodlarga asoslangan edi. Bu e'tiqodlar ularning ijtimoiy hayoti, madaniy qadriyatlari va san'atida o'z ifodasini topgan [8].

Saklarning diniy dunyoqarashi animizm, totemizm va shamanizm unsurlari bilan boyitilgan. Ular tabiatni jonli mavjudot sifatida tasavvur qilganlar. Quyosh, oy, yulduz, olov, suv, yer va shamol ular uchun muqaddas hisoblangan. Masalan, olovga sig'inish marosimlari ko'plab arxeologik yodgorliklarda aks etgan. Odamlar olov orqali yovuz ruhlardan poklanish va himoya topishganiga ishonishgan. Quyosh esa hayot va nur manbai, ilohiy kuch sifatida tasvirlangan. Bu e'tiqod keyinchalik Zardushtiylikdagi "Ahura Mazda" konsepsiyasiga o'tganligi bilan diqqatga sazovor [9].

Saklar orasida osmon tangrisi — "Buyuk Osmon" (Tangri) g'oyasi ham keng tarqalgan bo'lib, ularning harbiy ruhiyatini, adolat va kuchga ishonchini mustahkamlab turgan. Bu e'tiqod, keyinchalik, turkiy xalqlarning tangrichilik qarashlari shakllanishiga asos bo'lgan. Har bir urug' yoki qabila o'zining muqaddas totemiga ega bo'lgan — bu hayvon, qush yoki afsonaviy mavjudot shaklida bo'lgan. Misol uchun, ot saklar hayotida nafaqat transport va jangovar hayvon, balki muqaddas ramz hisoblangan.

Saklarning totemistik e'tiqodlari ularning san'atida ham yorqin aks etgan. Arxeologik topilmalarda — oltindan ishlangan hayvon shaklidagi bezaklar, burgut, yo'lbars, qoplon, buqa tasvirlari keng uchraydi. Bu belgilar himoya, jasorat va kuch ramzi sifatida talqin qilingan. Jumladan, Issiq qo'rg'onidan topilgan "Oltin odam" kiyimida 4000 dan ortiq hayvon tasvirlari mavjud bo'lib, ularning aksariyati totemik xarakterga ega [10].

Totem hayvonlar orqali saklar o'z urug'ining himoyachisini tasavvur qilganlar. Har bir qabilaning bayrog'ida yoki jangovar nishonida muayyan hayvon tasviri bo'lgan. Bu nafaqat diniy,

balki siyosiy ramz sifatida ham xizmat qilgan. Bunday timsollar orqali ular o'z ajdodlari ruhini, tabiat bilan bog'liqligini va jamoaviy birdamligini ifoda etganlar.

Saklarning diniy marosimlari orasida dafn marosimlari alohida o'rin tutgan. Ular o'limni hayotning yakuni deb emas, balki boshqa dunyoga o'tish deb bilishgan. Shuning uchun marhum bilan birga uning qurollari, zeb-ziynatlari, oziq-ovqatlari, hatto oti ham ko'milgan. Bu marosim orqali ular marhumga o'limdan keyingi hayotda yordam berishni maqsad qilganlar. Issiq, Pazırık, Tagar va boshqa ko'plab qo'rg'onlardan topilgan topilmalar buni isbotlaydi.

Dafn marosimlari ko'p hollarda diniy qo'shiqlar, qurbonliklar va tutun chiqarish marosimlari bilan birga o'tgan. Qabr ustiga tosh yoki haykal qo'yish odati esa ajdodlarga hurmat ifodasi bo'lgan. Bu holat ko'chmanchi xalqlarda keyingi davrlarda ham davom etgan.

Miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalaridan boshlab, saklar orasida Eronning g'arbiy hududlaridan kirib kelgan Zardushtiylik g'oyalari tarqala boshlagan. Bu ta'sir ayniqsa olovga sig'inish va yaxshilik-yomonlik o'rtasidagi kurash g'oyalari ko'zga tashlanadi. Biroq saklar bu diniy qarashlarni to'liq qabul qilmagan, balki o'z an'alariga moslashtirgan. Shu bois ularning diniy dunyoqarashi sintezlangan — ya'ni eski totemik va yangi dualistik elementlarning uyg'unligidan iborat bo'lgan [11].

Saklarning diniy an'analari ularning san'atida, yozma yodgorliklarida va afsonalarida aks etgan. Masalan, "Avesto"dagi ayrim mifologik obrazlar sak qabilalarining dunyoqarashiga yaqin. Shuningdek, ularning san'atida olov, quyosh va qanotli mavjudotlar timsollari ko'p uchraydi.

Saklarning diniy e'tiqodlari ularning urf-odatlar va ijtimoiy hayoti bilan bevosita bog'liq edi. Qabila yig'inlari, bahor bayramlari, hosil marosimlari, jang oldidan o'tkazilgan qurbonliklar — bularning barchasi diniy asosga ega bo'lgan. Erkaklar jasorat, ayollar esa farovonlik va hayot manbai timsoli sifatida ulug'langan. Ayniqsa, ayol obrazining muqaddasligi ko'plab afsonalarda aks etadi.

Saklar orasida urf-odatlar nafaqat diniy, balki axloqiy tarbiya vositasi bo'lgan. Yoshlar otabobolarga hurmat, tabiatni asrash, jamoa manfaatini ustun qo'yish ruhida tarbiyalangan. Bu qadriyatlar keyinchalik O'rta Osiyo xalqlarining madaniy merosida davom etgan.

#### **Xulosa va takliflar:**

Ko'chmanchi sak qabilalarining diniy e'tiqodlari, urf-odat va an'analari O'rta Osiyo xalqlarining madaniy shakllanishida muhim o'rin tutgan. Ularning dunyoqarashi tabiat bilan uyg'unlik, ajdodlarga hurmat va jamoaviy birdamlik g'oyalari asoslangan. Bugungi kunda bu qadriyatlar o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz va boshqa turkiy xalqlar madaniyatida saqlanib qolgan.

Ko'chmanchi sak qabilalarining diniy e'tiqodlari, urf-odatlar va an'analari ularning ijtimoiy-madaniy hayotining asosiy tayanchlaridan biri bo'lgan. Ularning dunyoqarashi, e'tiqodiy qarashlari va marosimlari nafaqat diniy, balki siyosiy va ma'naviy jihatdan ham xalq birligini mustahkamlashda muhim rol o'ynagan. Saklarning diniy qarashlarida tabiat, osmon, quyosh, oy va ajdodlarga sig'inish markaziy o'rinni egallagan. Ularning har bir marosimi va rituellari hayotning muayyan bosqichlariga tug'ilish, voyaga yetish, urush, o'lim kabi jarayonlarga bevosita bog'langan. Saklarning diniy e'tiqodlarini o'rganish orqali biz qadimiy O'rta Osiyo jamiyatlarining ma'naviy hayoti, ijtimoiy tuzilmasi va madaniy taraqqiyot darajasini yaxshiroq tushunishimiz mumkin. Ularning madaniy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki hozirgi zamon etnografik va falsafiy tadqiqotlar uchun ham boy manba hisoblanadi.

#### **Iqtiboslar/Сноски/Referenc**

1. Оранский И.М. Иранские языки в историческом освещении. – М.: Наука, 1979. – С.14. (Oransky I.M. Iranian Languages in Historical Perspective. – Moscow: Nauka, 1979. – P.14).
2. Хрестоматия по истории Древнего Востока. Бехистунская надпись Дария I / Перевод В.И. Абаева. – М.: Высшая школа, 1980. Ч. II. – С.24. (Reader on the History of the Ancient East. Behistun Inscription of Darius I / Translated by V.I. Abaev. – Moscow: Higher School, 1980. Part II. – P.24).

3. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б.32. (Sagdullaev A. Ancient Uzbekistan in the Earliest Written Sources. – Tashkent: O‘qituvchi, 1996. – P.32.)
4. Геродот. История. В девяти книгах / Перевод Г.А. Стратановского. – Л.: Наука, 1972. – Кн. III, 89-94. (Herodotus. History. In Nine Books / Translated by G.A. Stratanovsky. – Leningrad: Nauka, 1972. – Book III, 89–94.)
5. Толстов С.П. Приаральские скифы и Хорезм // СЭ. – М., 1961. – №4. – С.114–116. (Tolstov S.P. The Pre-Aral Scythians and Khorezm // Sovetskaya Etnografiya. – Moscow, 1961. – No.4. – P.114–116.)
6. Қурбанова Д.Ш. Хоразм воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрлар маънавий маданияти. – Тошкент, 2015. – Б.72–73, 107–110. (Qurbanova D.Sh. The Spiritual Culture of the Khorezm Oasis in Antiquity and the Early Middle Ages. – Tashkent, 2015. – P.72–73, 107–110.)
7. Кузьмина Е.Е. Сцена терзания в сакском искусстве // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С.78–83. (Kuzmina E.E. The Scene of Torment in Saka Art // Ethnography and Archaeology of Central Asia. – Moscow: Nauka, 1979. – P.78–83.)
8. Акишев К.А. Искусство и мировоззрение саков Центральной Азии. — Алматы: Наука, 1984. (Akishev K.A. Art and Worldview of the Saka of Central Asia. — Almaty: Nauka, 1984.)
9. Кузьмина Е.Е. Древнейшие кочевники степей Евразии. — Москва: Наука, 2002. (Kuzmina E.E. The Earliest Nomads of the Eurasian Steppes. — Moscow: - Nauka, 2002).
10. Толстов С.П. Древний Хорезм. — Москва: Издательство АН СССР, 1948. (Tolstov S.P. Ancient Khorezm. — Moscow: Publishing House of the Academy of Sciences of the USSR, 1948.)
11. Каримов А. О‘zbekiston tarixi: qadimdan hozirgacha. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017. (Karimov A. History of Uzbekistan: From Ancient Times to the Present. — Tashkent: Uzbekistan, 2017.)



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000